



# 2023



*гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки*

## **МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ**

*Илмий-методикалық журнал № 1*

# МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕҢДИРИҮ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2023**

**1-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агенттігі тәрепинен  
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-саны гүйділдік берилген.*

Нөкис

**Шолжемлестириүшілдер:**  
**Қарақалпақстан Республикасы Халық билімгендіриү Министрлігі,**  
**ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**  
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхұја АЙТБАЕВ  
Тұлқин АЛЛАЁРОВ  
Умида БАХАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Умида ИБРАГИМОВА  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Аскарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қажхор ТУРСУНОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

---



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

Курганов А. М. Инглиз ва ўзбек тиллари ҳарбий терминларининг лингвомаданий бирликларда ифодаланиши .....	6
Маллаева О. М. Умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал қасбий ривожланиши траекторияси масалалари .....	18
Рузметова Н. В. Роль и значение английского языка в профессиональной ориентации будущих правоведов .....	24

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Bazarbaeva M. A. Baslawish klaslarda oqiw-tárbiyaliq jumislar processinde informacion-kommunikaciya texnologiyalarin paydalaniw .....	32
Хаджибеков С. Н. Таълим кластери субъектлари интеграциясини лойиҳалаш механизми .....	37
Ўбайдова В. Э. Ўзбекистонда экспортбоп енгил саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришида Накъбандия таълимотини кўллашда сухбат методидан фойдаланиши .....	41
Хаджибеков С. Н. Педагогик тажриба-синов ишларининг сифат ва самарадорлиги .....	47
Qurbanova Z. M. Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyası tizimini takomillashtirishda mahmud az-zamaxshariyi ta'lomitidan foydalanish .....	51
Turgunova A. T. Avlodlararo munosabatlardan tizimida gerontopedagogika .....	59
Salieva P. A. Malaka oshirish tizimida boshlangich sinfi o'qituvchisining kasbiy kompotentligini takomillashtirishda rivojlantiruvchi ta'lim o'mni .....	67
Jumanov A. A. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holati va muammolari .....	72
Ergashev B. B., Mirsaidov I. T. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	77
Файзуллаев Р. Х., Сайфиева Ю. Ў. Олий таълим муассасалари талабалари фанлардан мустақил билим олиш, фикрлап, кўникума ва малакаларини шакллантириши .....	85
Чориев Р., Баратов М. Касб таълими мутахассисларини дуал тизими асосида қасбий фаолиятта тайёрлаш .....	91
Эргашева Г. Р. Мутахассиснинг қасбий мосламишига таъсир кўрсатувчи омиллар .....	97
Ходжанов А. Р. Талабаларни тарбиялашда педагогик фаолиятта куйладиган замонавий талаблар .....	102
Ярова С. Б. Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини такомillashtiriшнинг назарий асослари .....	111
Очилов А. Х. Таълим инновацияси .....	118
Болиев У. И. Олий ўкув юргида талабаларни мусиқа таълими воситасида маънавий-ахлоқий тарбиялашга қўйиладиган талаблар .....	122
Shodiyev H. R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanih o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish .....	126
Элмурзаева Н. Х. Интеграциялашган таълимнинг асосий vazifası .....	132
Ahadov M. Sh. Kimyoda ekstern ta'limni joriy etish metodikasi .....	136
Samiyeva Sh. X. Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilarning fikrlash tipologiyasini rivojlantirish .....	143
Fayzullaev R. X. Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs pedagogning o'mni va roli .....	154
Muqumova D. I. Ta'lim jarayonidagi pedagogik ixtiloflar, ularning sabablari va bartaraf etish choralari .....	160
Исмайлова З. К. Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларининг мобиллилик қобилиятини ривожлантириши .....	168



<b>Мустафоева Д. А., Маматалиева М. И.</b> Инновацион таълим жараёнларини ташкиллаштиришинг касбий-ижтимоий зарурати .....	178
<b>Садикова Ф. М.</b> Компетенциявий ёндашув асосида талабалар мустақил ишни ташкил этиш .....	183
<b>Жўраева Г. А.</b> Профессионал таълим йўналиши ўқувчи-талабаларида касбий компетенцияларни ривожлантириш .....	189
<b>Мусаева Г. У.</b> Ёшларни касбий фаолиятга йўналтириш самарадорлигини таъминлаш .....	195
<b>Olimova D. M.</b> O'quvchilarni milliy kashtachilik asosida estetik tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi metodik muammo sifatida .....	200
<b>Abduxamidov S. M.</b> Ta'lim metodlari haqida umumiylar .....	207
<b>Abduxamidov S. M.</b> Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarining mazmun va mohiyati .....	210
<b>Allayorova S. B.</b> Ta'lim samaradorligini oshirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari .....	213
<b>Allayorova S. B.</b> Ta'lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi .....	219
<b>Jamoldinova S. N.</b> O'situvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati .....	224
<b>Jamoldinova S. N.</b> Kommunikativ qobiliyat - ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida .....	229
<b>Элмурзаева Н. Х., Сайдов З.Х., Абдуллаева М.Х., Маруфхонова С.У.</b> Таълим тизимининг инновациялар жараёнлари .....	236
<b>Мустафоева Д.</b> Факторы развития компетентности персонала профессиональных образовательных учреждений .....	242
<b>Элмурзаева Н. Х., Сайдов З. Х. Абдуллаева М. Х. Маруфхонова С. У.</b> Методика стратегического планирования .....	248
<b>Шахмуррова Г. А., Халикова Р. А.</b> Формирование генетической грамотности у студентов биологического направления .....	253
<b>Элмурзаева Н. Х. Профессиональное саморазвитие педагога</b>	
<b>Zaripova D. A.</b> Training students on the basis of smart technologies in the development of innovation activities .....	262
<b>Khamrayeva G. R.</b> Model of development of education quality assessment skills of vocational education students .....	270

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Норинов Ф. Қ.</b> Геология фанининг тарихийлик нуқтаи назаридан тавсифий таҳлили .....	278
---	-----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Jumamuratov A. J., Kalilaev F. K.</b> Mekteplerde elementar bôleksheler fizikası bólimin oqítıwdı jetilistiriw jolları (Mektep fizika pâni muğallimlerine metodikaliq járdem) .....	286
<b>Джумабаев К. Н.</b> Умумий ўрта таълим мактабларида python дастурлаш тилини ўқитиш муаммолари .....	293
<b>Бекназарова З. Ф.</b> Физика фанини ўқитишда кейс технологиясини ташкил этиш .....	299
<b>Бекназарова З. Ф.</b> Олий таълимда физика фани амалиёт дарсларини педагогик технологиялар асосида олиб бориш .....	305
<b>Мавлонов Р. А.</b> Қурилыш йўналишлари талабаларига чизма геометрия фанини ўқитишда компетентли ёндашув .....	309
<b>Djumaev M.</b> Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzlucksizligining o'ziga xos xususiyatlari .....	314



## TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYA SHAROITINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Allayorova S. B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti  
“Pedagogika” kafedrasи o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tadbirkorlik; integratsiya; integratsiyalashgan aloqalar; integratsiya jarayoni, fan, ta'lif, amaliyot, ishlab chiqarish.

**Ключевые слова:** предпринимательство; интеграция; интегрированные коммуникации; интеграционный процесс, наука, образование, практика, производство.

**Key words:** entrepreneurship; integration; integrated communications; integration process, science, education, practice, production.

Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning turmush tarzidagi rivojlanish va yuksalishlarni ta'lif, fan hamda ishlab chiqarishning faol integratsiyalashuvisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Integratsiya termini amaliyotda ikki va undan ortiq sub'yektlarning bir maqsad atrofida birlashuvi, uyg'unlashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglatadi. Integratsiyalashuv jarayoni turli xil kengayish darajalariga ta'sir qiluvchi kompozitsion va kommunikativ tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Kompozitsion qismlar tarkib va tuzilish bilan bog'liq bo'lib, birlashuvchi sub'yektlarning norasmiy va me'yoriy chegaralarini aniqlashni talab qildi. Kommunikativ qism esa, tarkib va sub'yektlar o'rtasidagi aloqadorlikning shakli, yangi sharoitda ularning tamoyil va mexanizmlarining o'zgarishlarini nazarda tutadi.

Zamonaviy ta'lif tizimida integratsiyaning o'rni ortib, umumiy o'rta ta'lif muassasalarining o'quv faoliyatida, oliy o'quv yurti talabasining shaxsiy rivojlanishi natijalarida hamda ularning ijodiy va ilmiy qobiliyatlarida namoyon bo'lmoida. Shuni, aytish joizki faqat zarur bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklangan an'anaviy ta'lif strategiyasi shaxsning umuminsoniy va madaniy qadriyatlarni qabul qilishdagi ehtiyojlarini qondirmaydi, uning madaniyatli va kompetentli shaxs sifatida rivojlanishiga yetarli darajada javob bermaydi. Mazkur masalaning yechimlaridan biri ta'lif jarayonidagi integratsiya muammosi bo'lib, u ko'plab tadqiqotlarda, ilmiy manbalarda o'z aksini topgan.



Ta’lim tizimining amaliy jarayonlariga integratsion yondashuvlarni joriy qilish, amaliy tadqiqotlar olib borishda integratsiyaning tarixiy rivojlanishini bilish, kuzatish, tahlil qilish va ta’lim tizimiga mos holda joriy qilish bilan bog‘liq bo‘lgan eng dolzarb yondashuvlarni tanlab olish imkoniyatini beradi. Integratsiya terminining ilmiy holati bиринчи мarta XVII asrda integral hisoblash nazariyasida keltirilgan. Bu yerda integratsiya bir tomonidan, differensiyaga teskari jarayon sifatida ko‘rib chiqilgan, ikkinchi tomonidan esa, birlashtirishning o‘ziga xos turi sifatida qaralgan.

Ta’limda integratsiya g‘oyasi Ya.A.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, bu ko‘p ma’noli tushuncha XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlab o‘tilgan. Bugungi kunda bu ilmiy tushuncha pedagogika fanining kontekstiga ham singdirilgan. Fanlar integratsiyasini ularning o‘zaro aloqalari shakli sifatida tushunish kerakligini ta’kidlab o‘tgan B.M.Kedrov, bilimlarning turli sohalarida umumiy tadqiqot maqsad va vazifalari mavjudligini, undagi muammolarni hal qilish va amalga oshirish uchun muayyan yagona bilim vositalari tizimi zarur degan fikrga keladi.

Ta’lim tizimini modernizasiyalash sharoitida uni integratsiyalash innovatsion paradigma hisoblanib, ta’lim turlarining ajralmas o‘zaro munosabatlari, hamkorligi doirasida ijodiy, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish mumkin. Ta’lim integratsiyasining ikki muhim xususiyatini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: ta’lim fan va madaniyatni rivojlanishda dunyoning umumiyo ko‘rinishida yosh avlodning integral bilimlar tizimini shakllantirish maqsadida integrativ tendensiya sifatida; inson faoliyatining dunyo bilan aloqa va munosabatlari tizimida integrativ umumiy predmet sifatida tasvirlanadi.

Yevropa olimlarining ta’limdagi integratsiya jarayoni va uning samaradorlikni oshiruvchi omil sifatidagi e’tiroflariga qo‘shilgan holda, aytish mumkinki, ta’lim sohasidagi integratsiya jarayonlarini amaliy ahamiyatga ega sifatni ta’minlashga moddiy va moliyaviy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha resurslarni jalb qilish zarurati mavjud. Integratsiya ta’limda asosan ikki tushuncha sifatida, ya’ni ta’lim tizimining integratsiyasi hamda ta’lim mazmunining integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ta’limda chuqur integratsion jarayonlar muqarrarligini ta’kidlagan I.E.Kashekovaning fikricha, “zamonaviy dunyo integrativ asosda qurilgan bo‘lib, u ko‘p qirrali bilim, kompetensiya, axborot oqimini to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri ishlatish qobiliyatini talab qiladi”. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ta’lim integrativ asosida qurilishi, insonni dunyo bilan tanishtirishi va uni o‘zlashtirishiga yordam berishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.



Fan integratsiyasi ta'lim mazmunini o'zgartirishning asosi bo'lib, hozirgi zamon ta'lim tizimida shaxsni oila, maktab, jamiyat va davlatning asosiy qiymati sifatida uning rivojlanishi ta'lim bilan bog'liqligini hisobga olish lozim. Integratsiya aynan shu maqsaddagi ta'lim tizimining rivojlanishini amalga oshirishni hal qiladigan murakkab ilmiy, pedagogik va ijtimoiy omildir. Berilgan ta'rif va tavsiflardan integratsiyada uzlusizlik va izchillik tushunchalari o'zaro aloqadorlik va bir butunlikni hosil qilishi anglashiladi. Bu tushunchalarining tabiiy aloqadorligini ilmiy nuqtai nazardan asoslash, shubhasiz, ular o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtiradi, bu xususiyatlarning samaradorligi uchun xizmat qiladi. Demak, har bir soha yoki tarmoqning rivojlanishi, avvalo, uch omil: ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro hamkorligi, yaxlitlashuvi va integratsiyasiga bog'liq. Bu uchlikning o'zaro integratsiyasi nafaqat sohalarning, balki shu tizim sub'yektlarining ham innovatsion jarayonlar sari yuz burishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, ishlab chiqarish har doim innovatsiya va ilmiy yondashuvga ehtiyoj sezadi, bu ishlab chiqarishning turli darajalariga ham taalluqli bo'lib, uning to'g'riliqi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Chunki ishlab chiqarish endilikda o'zining tor sohasidagina vakolatlarga ega emas. U ilmiy uslublar va yuqori malakali kadrlar ishlab chiqarishning imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi kunda ilm-fan ishlab chiqarishdan ajralgan holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Endilikda ilm-fan va ishlab chiqarish yo'lidan borsagina yuqori natijalarga erishishi amaliy tajribalarda o'z isbotini topdi.

Integratsiyaning asosida sinergiya (yunoncha "synergos" – "muvofiglashgan", "o'zaro hamkor") qonuni yotadi. Sinergiya qonuniga asosan har qanday sub'yekt o'zida faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha jihatlarni birlashtira olmaydi, u har doim boshqa sub'yektlar bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi. Turli sub'yektlardagi mazkur jihatlarning birlashtirilishi samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, integratsiyalashish turlari quyidagicha tasniflangan:

1. Rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha: gorizontal, vertikal, diogonal integratsiya.

2. Integratsiyalashish darajasiga ko'ra: o'zaro hamkorlik, kooperasion va to'liq integratsiya.

3. Faoliyat yo'nalishlari bo'yicha: ishlab chiqarish, ilmiy, ta'lim, marketing, investisiyaviy va innovasion integratsiya.

4. Huquqiy asosiga ko'ra: ulushli va qo'shma integratsiya

Yuqoridagi tasniflardan kelib chiqib, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga rivojlanish yo'nalishi bo'yicha vertikal, integratsiyalashish



darajasiga ko‘ra o‘zaro hamkorlik, faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqarish, ilmiy va ta’limiy integratsiya sifatida qarashni belgilash maqsadga muvofiq. Umuman, yuqoridagi tasnif ko‘proq iqtisodiyot tarmoqlari va biznes sub’yektlarining o‘zaro integratsiyasini nazarda tutadi. Integratsiyaning umumiyligi maqsad va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda uni ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga ham taalluqli deyish o‘rinli. Hozirgi davr nazariyasida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga oid turlicha yondashuvlar kuzatilmoqda. Bunday nuqtai nazarlardan birida mazkur jarayonga ichki tarmoq va tarmoqlararo integratsiya sifatida qaraladi. Ichki tarmoq integratsiyasi deyilganda, fan va ta’limni davlat boshqaruvining bir sohasi doirasida birlashtirish nazarda tutiladi.

Ta’lim tizimidagi integratsiya jarayoni har bir sub’yektning quyidagi maqsadlarga erishishiga imkon beradi: ta’limga yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etishda bundan manfaatdor bo‘lgan barcha hamkorlar imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z mavqeyini yanada oshirish; umumiyligi maqsadlardan kelib chiqqan holda, xususiy maqsadlariga erishish uchun hamkorlardagi mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish.

Bu bilan sub’yektlarning har biri alohida va umumiyligi maqsad atrofida birlashib, faqat o‘z samaradorligini oshirishdangina emas, shuningdek, boshqa sub’yektlarning ham yuqori samaraga erishishidan manfaatdor bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan – ta’lim – ishlab chiqarishni rivojlantirish va unga ijobjiy ta’sir ko‘rsatuvchi ta’lim samaradorligini oshirishni kuchaytirishning iqtisodiyijtimoiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ishlab chiqarish jarayonining ishtirokchisi bo‘lgan insonning bilimlarni o‘zlashtirish, inson kapitalini shakllantirish, uni rivojlantirish aynan ta’lim majmuasi tomonidan amalga oshirilishi; jamiyat a’zolarining bilim darajasi davlatning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush farovonligini belgilovchi muhim omil ekanligi; jamiyat iqtisodiyoti rivojlanishi inson bilimining kuchli ta’siri natijasida yuzaga kelishi, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi; ta’lim sohasining turli tizimlarida axborotlarning yetakchi bilimga aylantirilishi; mamlakat mehnat taqsimotida milliy ta’lim tizimi ahamiyatining ortib borishi va h. k. Ta’lim samaradorligining ustuvor omili hisoblangan integratsiyaning turli daraja va yo‘nalishlardagi quyidagicha faoliyat turlarini keltirib o‘tish mumkin: mamlakat ilm-fanining jahon ilm-fani bilan integratsiyasi; ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi; davlat, hudud va muassasa darajasidagi integratsiya; turli xil sohalardagi ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi;



ta’lim maydonida ta’lim turlarining barchasini uzluksiz ta’limning yagona tizimiga integratsiyalash (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, maxsus va qo‘shimcha ta’lim va b.); ta’limning turli bosqichlaridagi (boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, yuqori sinf) uzviylik; turli sohalardagi bilimlar integratsiyalashuvi (fan, madaniyat, san’at, iqtisodiyot va hokazo); kasbiy bilimlarning ilmiy tadqiqot bilan integratsiyalashuvi (tanlov nazariyasi asosidagi kasbiy bilimni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish); fanlararo integratsion ta’lim (umumta’lim o‘quv rejalaridagi fanlarning uzviyligi), mavzulararo va mavzu ichidagi bilimlar integratsiyasi (muayyan fan negizidagi mavzular uzviyligi va izchilligi); o‘qitish metodlari, texnologiyalari va ularni tashkil etish shakl, usul va vositalari integratsiyasi; ta’lim jarayonining turli ishtirokchilarini yagona ta’lim makonida integratsiyalash (ta’lim beruvchilar, ta’lim oluvchilar, ota-onalar, maxsus ijtimoiy-madaniy guruhlar (nogironlar, migrantlar) va b.); ta’limning barcha ishtirokchilari tarbiya va madaniyatini integratsiyalash (rahbar, xodim, ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi, ota-onsa, ijtimoiy buyurtma talabgori) va h. k.

Ta’lim tizimini integratsiyalashtirish jarayoni klaster asosida amalgalashirilib, tadqiqotda uni isloh etishga doir bir qator ilmiy, uslubiy, tashkiliy va amaliy ishlar olib borildi. Bu harakatlar natijasida ta’lim jarayoni ishtirokchilari kompetensiyalarini yanada takomillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Demak, quyidagi integratsion didaktik imkoniyatlarda ta’lim sifatini oshirish mumkin: bo‘lajak mutaxassislar bilimi, ish uslubi, qobiliyat va fazilatlari butunligini ta’minalash orqali to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda o‘quvchilar tomonidan pedagogik va texnik bilimlarning kombinasiyalashgan, bir butun holda o‘zlashtirilishiga erishish (bu imkoniyat yetuk, raqobatbardosh mutaxassisni ta’minalashda samara beradi); integratsiya sharoitida ta’lim sifatini boshqarishda o‘qituvchi faoliyatining barcha kompetensiyalarini yaxlit holda takomillashtirish va yuqori natijaga erishish uchun o‘quv jarayonini rejalashtirish, loyihalashtirish, texnologiyalashtirish, qo‘yilgan natijaga erishishda tanlangan usul va vositalarni o‘zaro uzviylik va izchillikda olib borish (bu ta’lim sifatining yuqori natijalariga erishishga xizmat qiladi); o‘quvchi kompetensiyalarini takomillashtirishni fanlararo, mavzulararo, kurs va bo‘limlararo individuallashgan, tabaqalashgan hamda ixtisoslashgan ta’lim asosida amalgalashirish (bu o‘quvchining kelajakdagagi kasbiy muvaffaqiyati garovi bo‘lib xizmat qiladi); integratsiya sharoitida o‘quv jarayoni tashkiliy shakl va usullari, uni samarali tashkil etuvchi sharoit va qo‘llaniladagan uslub va texnologiyalar bilan birgalikda olib borish (bunda



sifatli ta’lim ta’milnadi); o‘quvchi tafakkurini, kreativligini shakllantirish uchun muammoli o‘qitish, individual ishslash, motivasiyani kuchaytirish, mustaqil ta’limga yo‘naltirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tarkibiy qismlarini o‘zaro integratsiyalash orqali tashkil tashkil qilish (bu orqali o‘quvchi iqtidori rivojlanadi hamda sifatli ta’lim olish ta’milnadi)

### **Adabiyotlar:**

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi / darslik –T: Fan va texnologiya
2. Yo‘ldoshev J.G°., Usmonov S.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006.
3. Jumanov A.A. Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv-tarbiya jarayonida fanlarichra va fanlararo integrasiyasini ta’minlashning pedagogik psixologik masalalari / Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.
4. Muxamedov G°.I, Xo‘jamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta’lim innovation klasteri / monografiya -T.: Universitet, 2020.
5. Апихмина Я.Г. Интеграционные проекты в современной России: виды и характеристики // Научный ежегодник института философии и права УрОРАН. – 2010. Вып
6. Ta’lim tizimida integratsiya pedagogik innovatsion klasteri “Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliv ta’limning transformatsiyasi”. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami (2022 yil 18 noyabr). – Tashkent: “Imzo Print Media Group”, 2022. Ximmataliyev D.O, Allayorova S.B

### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqlada «integratsiya» tushunchasining talqini keltirilgan bo’lib, uning shart-sharoitlari fa, ta’lim va ishlab chiqarish sifatini yaxshilash va samarasizlikni bartaraf etish istagi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va ortiqcha resurslardan foydalanish imkoniyatiga foydalanish borasida so’z brogan.

### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье представлена трактовка понятия «интеграция», ее условиями являются стремление повысить качество образования и производства и устранить неэффективность, диверсифицировать производство и воспользоваться возможностью использования избыточных ресурсов.

### **SUMMARY**

In this article, the interpretation of the concept of «integration» is presented, its conditions are the desire to improve the quality of education and production and eliminate inefficiencies, to diversify production and to take advantage of the opportunity to use excess resources.